XALQ DEPUTATLARI XOVOS TUMANI KENGASHI
Q A R O R I

2023 - yil 25 - iyul VI-61-121-9-129-K/23 Xovos tuman hokimligi

Xovos tuman mahalliy byudjetining 2023-yil boshiga shakllangan qo‘shimcha manbalari hisobidan mablag‘ ajratish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi byudjet kodeksining 126-moddasiga hamda “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6,24-moddalariga muvofiq Xalq deputatlari tuman Kengashi

Qaror qiladi:

1. Xovos tuman hokimining tuman mahalliy byudjetining shakllangan qo‘shimcha manbalari (erkin qoldiq) hisobidan mablag‘ ajratish yuzasidan kiritilgan taklifi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. Xovos tuman mahalliy byudjetining qo‘shimcha manbalari Xalq deputatlar Xovos tuman Kengashining qarorlari asosida yo‘naltirilishi belgilab qo‘yilsin.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 iyundagi PQ-3042-sonli qaroriga muvofiq, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qaror va farmoyishlarida, Hukumat qarorlari va bayonlarida belgilangan tadbirlarni bajarish maqsadida hamda tumanning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish tadbirlariga tuman mahalliy byudjetining qo‘shimcha manbalari hisobidan mablag‘ ajratish 1-ilovaga muvofiq amalga oshirilsin.

4. Byudjetdan mablag‘ ajratilgan tashkilot rahbarlariga tuman mahalliy byudjetining qo‘shimcha manbalari hisobidan ajratilgan mablag‘larning maqsadli va samarali sarflash vazifasi hamda sarflangan mablag‘lar to‘g‘risidagi hisobotlarni Xalq deputatlar Xovos tuman Kengashga taqdim etib borish vazifasi yuklatilsin.

5. Ushbu qaror ijrosini tashkillashtirish tuman hokimining moliya-iqtisodiyotva kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari I.Nurmatov zimmasiga yuklatilsin.

6. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish Xalq deputatlari tuman Kengashining Mahalliy byudjetni shakllantirish va ijro etish, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishva tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasiga yuklatilsin

Sessiya raisi **Raimnazarov.G`.E**

Xalq deputatlari Xovos tuman Kengashining
2023-yil 25-iyuldagi
VI-61-121-9-129-K/23-son qaroriga
1-ilova

Xovos tuman 2023 yil boshida shakllangan erkin qoldiq mablag'lari hisobidan mablag‘ ajratilishi to‘g‘risida

ming so'mda

T/r	Xovos tuman budjet tashkiloti nomi	O‘zgartirishga taklif
1	*Madaniyat va turizm bo'limini safar xarajatlari uchun*	**12 000,0**
2	*Madaniyat va turizm bo'limini xodimlarini moddiy rag'batlantirish*	**40 000,0**
3	*Iqtisodiyot va moliya bo'limini moddiy rag'batlantirish*	**39 000,0**

Xovos tumani bo'yicha jami	**91 000,0**
jumladan:	